


# Akademik Jaloliddin Azimov bilan onlayn suhbat o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda o'tkazilayotgan "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasining bu galgi mehmoni zoolog, biologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi Jaloliddin Azimov bo'ldilar.

Onlayn suhbat Zoom platformasida "O'zbekistonda parazitologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida bo'lib o'tdi. Unda Prezident maktablari, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biloglar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchi va o'quvchilari ishtirok etdi.



Akademik Jaloliddin Azimov ishtirokchilarga odam, mahsuldor hayvonlar va madaniy o'simliklarda uchraydigan parazitlarning tuzilishi, biologiyasi, tarqalishi, tasnifi, qo'zg'atadigan kasalliklari va ularning oldini olish choralarini haqida qiziqarli ma'lumotlarni gapirib berdilar. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.